

# «TURONBANK» ATBDA “KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MENEJMENT TIZIMI”NING FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA UMUMIY 2023 YIL UCHUN YILLIK HISOBOT

## **I. Bankning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati;**

“Turonbank” ATBning 2023-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yillik dasturiga muvofiq olib borilgan ishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Bank xizmatlarida inson omilini kamaytirish va xodimlarni ishga olishda shaffoflikni ta‘minlash “Turonbank” ATB da Korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlandi.

Bank Boshqaruvi tomonidan 2023-yil uchun tasdiqlangan reja-jadval asosida O‘quv markazi bilan hamkorlikda har haftada “Ochiq-muloqot” shaklida barcha bank xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari hamda Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki me‘yoriy hujjatlarida belgilangan talablar mohiyati tushuntirib borildi;

Korrupsiyaga qarshi murossasiz kurashishda xalqaro standartlarga javob beradigan menejment tizimini tatbiq etish maqsadida 2023-yilning mart oyida xalqaro trening kompaniyasi bo‘lgan “CERT academy” mutaxassislari ishtirokida “Turonbank” xodimlari uchun o‘quv-seminar tashkil etildi. Seminar davomida ishtirokchilarga ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uni boshqarish bo‘yicha ma‘lumotlar taqdim etilib, xalqaro amaliyot borasida so‘z yuritildi. Seminar yakunida ishtirokchilar ISO37001:2016 xalqaro standart talablariga javob beruvchi sertifikatga ega bo‘lishdi;

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda Bankning bosh ofisi va bank xizmatlari markazlari xodimlari uchun 2023-yilning noyabr oyida **“Korrupsiyaga qarshi kurashishda – Komplaens nazorat tizimi”** mavzusida maxsus seminar-trening tashkil etildi;

Bankning mas‘ul xodimlari 2023-yilning 3-noyabr kuni poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan “III Toshkent Aksilkorrupsiya forumi”da ishtiroki doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan choralar hamda erishilgan natijalar, kelgusidagi rejalar, yangi istiqbollarni belgilab olish yuzasidan xalqaro va mahalliy ekspertlar bilan tajriba almashdilar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida **9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni** munosabati bilan 2023-yil 7-dekabrda “**Ochiq eshiklar kuni**” tashkil etildi;

2023-yilning 19-dekabr kuni Toshkentda o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimida xodimlar ishtirok etdilar;

Bundan tashqari, Bank faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash (reyting baholash) tizimiga (e-anticor.uz) 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi kiritilishi ta‘minlandi.

## **II. Korrupsiyaga qarshi kurashishda Bankda qabul qilingan ichki me‘yoriy hujjatlar;**

“Turonbank” ATB Kuzatuv kengashining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi menejmenti bo‘yicha ichki me‘yoriy hujjatlar:

“Turonbank” ATBning “Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish choralari to‘g‘risida”gi Siyosati;

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining manfaatlar to‘qnashuviga oid Siyosati;

“Turonbank” ATB bosh bank va filillarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom;

“Turonbank” ATBda aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti;

“Turonbank” ATBda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida xodimlarning odob-axloq qoidalari;

“Turonbank” ATB xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

“Turonbank” ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament;

“Turonbank” ATB bosh bank va uning filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti;

“Turonbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom;

“Turonbank” ATBda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

“Turonbank” ATBda kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash;**

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonlari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” (*ro‘yxat raqami: 3383, 31.08.2022-y.*) hamda bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibiga asosan amalga oshirildi.

Shuningdek, Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funktsiya va lavozimlar ro‘yxati hamda 2023-yil korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi belgilangan maqsadlarga erishishni nazarda tutuvchi o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja-dastur tasdiqlangan.

Bugungi kunda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati:

1 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori;

5 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi o‘rta;

14 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past deb baholandi.

### **IV. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan choralar;**

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining tegishli qarorlari bilan:

- “Turonbank” ATBning “Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish choralari to‘g‘risida”gi Siyosati;

- “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining manfaatlar to‘qnashuviga oid Siyosati;

- “Turonbank” ATB Bosh bank va Bank xizmatlari markazlarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom asosida Bank faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish choralari amalga oshiriladi.

Bankda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan:

- vakant bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilishda;

- yillik deklaratsiyalar (har yili 15-fevral kuniga qadar);

- real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelgan holatda.

2023-yil mobaynida bank tizimida 1395 nafar xodimlar (93,8%), shu jumladan rahbar xodimlar manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida deklaratsiyalarni taqdim etishgan.

#### **V. Ichki me‘yoriy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi;**

Shuningdek, 2023-yil davomida Bank yuridik xizmati Metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish boshqarmasi tomonidan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan ishlab chiqilib, Bank boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlangan 89 ta yangi hujjat o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatga olingan. Shu bilan birga, amalda bo‘lgan 48 ta ichki me‘yoriy hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ro‘yxatga kiritildi.

Ushbu ichki me‘yoriy hujjatlarning hammasi Bank yuridik xizmati tomonidan belgilangan tartibda huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan bo‘lib, 89 ta ichki me‘yoriy hujjatlar loyihalari hamda amalda bo‘lgan 48 ta ichki hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihalarida korrupsiyaga qarshi omillar mavjud emasligi o‘rganilgan hamda yuridik xulosalar taqdim etilgan.

#### **VI. Xodimlarning ishga qabul qilinishida shaffoflikni ta‘minlanishi holati;**

“Turonbank” ATBning Bosh bank va Bank xizmatlari markazlarida xodimlarini ishga qabul qilish, shuningdek, rotatsiya qilish, lavozim darajasini oshirishda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida qator ishlar olib borilmoqda.

Yangi xodimlarni ishga qabul qilishda “Turonbank” ATB rasmiy veb-saytiga mavjud bo‘sh (vakant) ish o‘rinlari haqida e‘lonlar muntazam ravishda joylashtirib borilmoqda.

Shuningdek, tanlov (suhbat va test) jarayonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan xodimlarga Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan tanishtirish, shuningdek, ular bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik borasidagi bandlar kiritilishi ta‘minlandi.

#### **VII. Davlat xaridlarini amalga oshirish holati;**

O‘tkaziladigan har bir davlat xaridida ishtirokchilariga teng imkoniyatlar yaratish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni vujudga keltirish maqsadida Bank faoliyatida kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarni ularning manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yish ehtimoli, Bank tizimi xodimlari bilan affillan(ma)ganligi, davlat xaridining boshqa ishtirokchilari bilan aloqadorligi singari kriteriyalar ochiq axborot manbalari yordamida baholash yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqoridagi talablar asosida 2023-yil davomida 90 dan ortiq ishtirokchilar tekshirildi. Ularning barchasiga davlat xaridida ishtiroki bo'yicha ijobiy yoki salbiy xulosalar berildi.

### **VIII. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar, ularni bartaraf etish.**

Bank tizimida korrupsiyaviy omillarga qarshi kurashish, ularni vaqtida aniqlash va bartaraf etish maqsadida aloqa kanallari faoliyati uzluksiz rejimda ish olib bormoqda.

Fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik yoki manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan Bankning rasmiy veb-saytida komplaens nazorat xodimiga murojaat qilish (<https://turonbank.uz/oz/services/compliance/send/>) imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, (+998 71) 244-28-89 telefon raqamiga, elektron pochta ([anticorrupt@turonbank.uz](mailto:anticorrupt@turonbank.uz)), bundan tashqari "Telegram" messenjeri orqali [@turonbankantikor\\_bot](https://t.me/turonbankantikor_bot)ga xabar yuborishlari mumkin.

2023-yil yakuniga:

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bank xodimlarining korrupsion xatti-harakatlari haqida ma'lumot mavjud emas;

barcha aloqa kanallari soz va ish faoliyatida;

bankda aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar reestri yuritilgan.